


2020- yil yanvar-dekabr oylari uchun Samarqand viloyatida qurilish ishlari

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida Samarqand viloyatida jami 5 665,9 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 109,9 %ni tashkil etdi.




2020- yil yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi %da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.



Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



2020– yil yanvar–dekabr oylarida mulkchilik shakllari bo‘yicha qurilish ishlari



Qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

2021- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra qurilish sohasida ro‘yxatdan o‘tgan jami korxonalar va tashkilotlar soni 3,2 mingta, faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni esa, 3,1 mingtani tashkil etib, o‘tgan 2020- yilning mos davriga nisbatan 355 taga oshdi.

Qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni ko‘payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurilishda qurilish ishlari hajmining o‘tgan yilga nisbatan **20,6 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **73,6 %**) oshganligi hisobidandir.

Bino va inshootlar qurilish bo‘yicha qurilish ishlarining eng yuqori ulushi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2019- yilning yanvar-dekabr oylaridagi jami ko‘rsatkichga nisbatan **58,8 %**ni tashkil etdi.




**Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni (birlikda)**

	Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, %da
	01.01.2020- yil	01.01.2021- yil	
Samarqand viloyati	2 724	3 079	113,0
Samarqand sh.	979	1 079	110,2
Kattaqo'rg'on sh.	84	105	125,0
tumanlar:			
Oqdaryo	111	145	130,6
Bulung'ur	54	68	125,9
Jomboy	96	120	125,0
Ishtixon	129	144	111,6
Kattaqo'rg'on	113	120	106,2
Qo'shrabot	63	67	106,3
Narpay	71	85	119,7
Payariq	215	248	115,3
Pastdarg'om	281	308	109,6
Paxtachi	59	65	110,2
Samarqand	114	136	119,3
Nurobod	45	43	95,6
Urgut	199	213	107,0
Toyloq	111	133	119,8



**Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalarining hududlar kesimida
ulushi (%da), 01.01.2021- yil holatiga**



Ma'lumot uchun: Viloyatda qurilish korxonalari soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan hududlar Samarqand shahri (35,0 %), Pstdarg'om (10,0 %) va Payariq (8,1 %) tumanlaridir.

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **749,0** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **4,2** marta koʻp bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi koʻrsatkich darajasidan **9,8 %** punktga koʻpaygan.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi, %da



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Samarqand shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **53,5 %i** yoki 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **2,3** marta koʻp), Pstdargʻom (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **20,0 %i**), Toyloq tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **13,8 %i**), Bulungʻur (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **6,1 %i**), Paxtachi (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **3,3 %i**), Samarqand (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **2,0 %i**), Kattaqoʻrgʻon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **1,3 %i**) va Oqdaryo (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **0,4 %i**) tumanlarga toʻqʻri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, %da



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

- 2020- yil yanvar-dekabr
- 2019- yil yanvar-dekabr

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan kamayganligi kuzatildi. Ular tomonidan jami qurilish ishlari hajmining **62,3 %** bajarilib, 2019- yilning yanvar-dekabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **5,2 %** punktga kamaygan.

Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,6 %**ni tashkil etgan holda **3 527,3** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.


Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi **24,5 %**ni tashkil etib, **1 389,6** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan kamayish kuzatilib, **92,3 %**ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi

ulushi %da

mlrd. so'm



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **321,8** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **180,8 %**ni va jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **5,7 %**ni tashkil etdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **5 344,1** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **107,4 %**ni va jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **94,3 %**ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, %da



2020- yil
yanvar-dekabr

Samarqand viloyatida qurilish ishlari

7



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta quollantirish ishlari ulushi

2020- yil yanvar-dekabr

67,9 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining 67,9 % yoki 3 842,1 mlrd. so'mni tashkil etgan.

18,2 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan 699,4 mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 18,2 %ni tashkil etdi.

47,4 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan 1 819,3 mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 47,4 %ni tashkil etdi.

34,4 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga 1 323,4 mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 34,4 %ni tashkil etdi.



**Hududlar kesimida qurilish ishlari
2020- yil yanvar-dekabr oylarida**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari (mlrd. so'm)
Samarqand viloyati	5 665,9	109,9	3 842,1
Samarqand sh.	2 023,0	108,9	1 373,2
Kattaqo'rg'on sh.	103,1	113,9	69,9
tumanlar:			
Oqdaryo	441,8	106,5	298,2
Bulung'ur	159,1	143,8	107,9
Jomboy	267,8	106,8	181,6
Ishtixon	267,3	107,8	181,3
Kattaqo'rg'on	177,2	112,4	120,2
Qo'shrabot	142,7	108,8	94,7
Narpay	177,1	106,2	120,1
Payariq	366,1	108,7	248,3
Pastdarg'om	398,2	112,1	272,1
Paxtachi	164,8	110,9	111,7
Samarqand	265,8	106,1	180,2
Nurobod	90,7	111,4	61,5
Urgut	300,9	106,2	204,0
Toyloq	320,3	118,4	217,2

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Samarqand viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, %da

2019- yil yanvar-dekabr

7,9



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

15,7



Fuqarolik obyektlarini
qurish

76,4



Bino va inshootlarni
qurish

2020- yil yanvar-dekabr

7,2



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

19,2



Fuqarolik obyektlarini
qurish

73,6



Bino va inshootlarni
qurish

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

ulushi %da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **8,0 %**ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-dekabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **13,9 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-dekabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **8,6 %** punktga ko'payib, **58,8 %**ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-dekabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **5,3 %** punktga ko'payib, **33,2%**ni tashkil etdi.






Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi %da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **37,3 %**ni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **1,6 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **62,3 %** (**1,4 %** punktga ko'paydi) hamda norasmiy sektorning ulushi **0,4 %**ni (**0,2 %** punktga ko'paydi) tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi %da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **2,7 %**ni (**15,5 %** punktga kamaydi) tashkil etdi. Qolgan **97,3 %** ulush esa (**15,5 %** punktga ko'paygan) kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi.





Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar-dekabr oylarida

Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

Samarqand sh.
2 023,0

2

Pastdarg'om
398,2

1

Oqdaryo
441,8

3



Eng kichik hajm

(mlrd. so'm)

Nurobod
90,7

2

Qo'shrabot
142,7

1

Kattaqo'rg'on sh.
103,1

3





**Samarqand viloyati
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (66) 230-45-32

